

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADIGAN TA'LIM TENDENSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10000513>

Madiyar Abdullayev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Geografiya" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya ta'limi sifatini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy ta'lim tendensiyalari haqida so'z boradi. Bunda eng asosiylari deb olingan beshta tendensiyani qo'llash va ulardan foydalanish yo'llari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Moshlashuvchan o'qitish, ta'limni raqamlashtirish, STEAM ta'lim berish, geymifikatsiya, aralash o'qitish, ta'lim texnologiyalari, ta'lim tendensiyalari.

Аннотация

В данной статье говорится о современных образовательных тенденциях, которые служат повышению качества преподавания географии в общеобразовательных школах. В нем говорится о применении пяти основных тенденций и о том, как их использовать.

Ключевые слова

Гибкое обучение, цифровизация образования, STEAM-образование, геймификация, смешанное обучение, образовательные технологии, образовательные тренды.

Annotation

This article talks about modern educational trends that serve to improve the quality of geography education in general secondary schools. It talks about the application of the five main trends and how to use them.

Keywords

Flexible learning, digitization of education, STEAM education, gamification, blended learning, educational technologies, educational trends.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim masalalardan biri o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda pedagogik texnologiyalar va innovatsion yutuqlardan keng foydalanish, ularni ta'lim tizimiga joriy qilib borish hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini

tatbiq etish muhim vazifa hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish natijasi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni qay darajada o'zlashtirganligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim sohasi vakillariga qo'yiladigan asosiy talab esa o'qitish usullari takomillashtirishdan iboratdir.

Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda amaliyotga joriy etilgan va eng samarali natija berayotgan asosiy tendensiyalarga to'xtalib o'tsak.

1-tendensiya. Moslashuvchan o'qitish – ta'lim oluvchilarni tizim bilan faol aloqada o'qitish texnologiyasi. Bu texnologiya “interfaol o'qitish vositalari” sifatida taklif etilgan va ularni o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish maqsadida yangi texnologiyalarni amalga oshiradigan o'quv modeli hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida moslashuvchan ta'lim texnologiyasidan foydalanish keng tarqalgan. Moslashuvchan ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki - bu o'quvchining ehtiyojlari va individual qobiliyatlarini iloji boricha hisobga oladigan yondashuv hisoblanadi. Ta'lim jarayonida moslashuvchan ta'lim texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayoni doirasida moslashuvchanlikni ta'minlaydigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi va ta'lim subyektlarining interaktivligini va o'quvchining o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan axborot-pedagogik texnologiyalarning integratsiyalashuvini nazarda tutadi. Moslashuvchan ta'lim texnologiyalari fanda xususan, geografiya ta'limida yangi hodisa emas. Moslashuvchan ta'limning navbatdagi bosqichi ta'lim jarayonini individuallashtirish bo'lib, bu individual ta'lim yo'nalishlari va trayektoriyalarini yaratishda o'z aksini topadi. Shu sababli geografiya ta'limi jarayonida moslashuvchan ta'limni chuqur o'rganishga va uni amalda qo'llashga katta ehtiyoj bor.

Ushbu texnologiyani amalga ishirish jarayonida o'quvchi test topshiradi va to'g'ri javob bergan yoki bermaganligiga qarab tizim savolning qiyinlik darajasini o'zgartiradi hamda o'quvchi savolga noto'g'ri javob beradi. Undan keyingi beriladigan savollarning murakkablik darajasi pasayadi. Bunda o'qituvchi o'quvchining bilim darajasiga qarab qanday darajadagi savollarni berishni belgilab oladi. Ta'lim beruvchi tomonidan test va nazorat savollarini tayyorlash jarayonida turli darajalarga ajratiladi va o'quvchining bilimiga mos holda ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'ladi.

Umuman olganda umumiy o'rta ta'lim maktablarining geografiya ta'limi jarayonida moslashuvchan ta'lim texnologiyalarini qo'llash darsning uy vazifasi va mustahkamlash qismlarida qo'llash yaxshi samara beradi.

2-tendensiya. Ta'limni raqamlashtirish. Hozirgi zamonda ta'lim berishning asosiy manbai hisoblanadi. Raqamli savodxonlik bu - zamonaviy dunyoda hayot

uchun, raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalardir.

Bu jarayonlarga masofadan o'qitish bilan birgalikda mobil texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish va o'quvchilar uchun raqamli muhit yaratishdan iboratdir. Raqamli dunyoda bilim olishning asosiy sababi globallashuv va o'quvchilarning bilim olishga degan tushunchasining kengayishidir. Raqamli texnologiyalarga keng ma'noda elektron qurilmalar, tizimlar va ma'lumotlarni yatkazib beruvchi ma'lumotlardan iborat. Bunda kompyuterlar, smartfon, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt, turli dasturlar shu tushunchaning ichida iborat. Shu o'rinda geografiya ta'limi sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan Learning Apps, Word wall, Google Earth, Google Classrom, Yandex Maps, Kahoot, Foxford, Talky kabi elekton platformalar katta ahamiyatga ega.

3-tendensiya. STEAM ta'lim berish. Hozirgi zamonaviy ta'limda STEAM ta'lim dasturlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. STEAM – ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida o'quvchilarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanishni o'rgatish asos qilib olinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi. Shuningdek, STEAM ta'lim texnologiyasi tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish, muammolarni yechish va bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur hamda muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

STEAM ta'limi hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion yondashuvlaridan biri hisoblanib, uning yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. STEAM o'quvchilarni ilhomlantiradi. O'quvchilar kashfiyotchilar va olimlar sifatida tadqiqotlar olib borishadi, texnologiyalarning imkoniyatlarini bilishadi, muhandislar sifatida ijod qilishadi, matematiklar kabi fikrlashadi va albatta hayotiy kompetensiyaga ega bo'ladi.

Geografiya fani keng qamrovli va kompleks fan bo'lganligi uchun STEAM ta'limi dasturlariga aynan fanga oid bilimlardan foydalanish yuqori samara beradi.

4 tendensiya. Geymifikatsiya. Geymifikatsiya – ta'lim berishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish. O'yinlar ta'limning qiziqarli qiladigan tamoyillarga asoslanadi va mavzuni mustaqil o'rganishga undaydi. Geografiya ta'limida foydalaniladigan o'yinlarning turlari juda xilma-xil. Ularni mazmuni va foydalanish maqsadi bo'yicha turlarga ajratiladi:

A) Maqsadlari bo'yicha o'yin turlari:

1) Informativ o'yinlari.

- 2) Mashq o'yinlari.
- 3) Mustahkamlash o'yinlari.
- 4) Nazorat o'yinlari.

O'yinlarning yuqoridagi turlari darsning qaysi qismida va qanday maqsad uchun foydalanishga bog'liqdir.

Informativ o'yinlarining asosiy maqsadi ta'lim mazmunini o'quvchilar tomonidan eslab qolishlariga yordam berishdir. Bu o'yinlardan yangi dars mavzusini o'rganishda foydalanadi.

Mashq o'yinlari o'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Mustahkamlash o'yinlari utilgan mavzularni takrorlash, o'quvchilar olgan bilim va malakalarini mustahkamlashda qo'llaniladi. O'yinlardan foydalanish takrorlash darslarini qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Nazorat o'yinlari o'quvchilarning bilim va malakalarini hamda ko'nikmalarini tekshirish va baholashda foydalaniladi. Bu o'yinlar nazorat usullarini xilma-xil qilishga, qiziqarli shaklda o'quvchilarning bilim va malakalarini qisqa vaqt ichida tekshirish hamda baholashga imkon beradi.

Yuqoridagi o'yin turlari ayrim holda yoki birgalikda qo'llanilishi mumkin. Bu eng avvalo o'qituvchi tomonidan tanlangan maqsadga bog'liqdir.

B) Mazmuniga ko'ra o'yin turlari:

- 1) Savol-javob o'yinlari.
- 2) Stol ustiga o'tkaziladigan o'yinlar.
- 3) Vaziyatli o'yinlar.
- 4) Magnitli doska yordamida o'tkaziladigan o'yinlar.
- 5) Faraz qilish o'yinlari.
- 6) Test savollari yordamida o'tkaziladigan o'yinlar.

Savol-javob o'yinlarida o'yinlar o'quvchilar o'rtasida musobaqa tarzida o'tkaziladi. Bunda sinfni bir necha komandalarga bo'lish mumkin. O'yin og'zaki, yozma, konkurs, ishi tarzida o'tkaziladi. Savollar viktorinalar, topishmoqlar, jumboqlar yoki krossvord, chaynvord rebuslar tarzida bo'lishi mumkin.

Stol ustiga o'tkaziladigan o'yinlarda geografik loto, geografik domino, karta bo'laklari, kubiklar va boshqalar yordamida o'tkaziladi.

Vaziyatli yoki rolli o'yinlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga ma'lum vazifa yoki muammo qo'yiladi. Bu vazifa yoki muammoni hal qilishda o'quvchilar injenerlar, olimlar, menejerlar, davlat rahbarlari yoki xo'jalikning turli tarmoqlari xodimlari rolini bajarishib o'zaro munozara qiladilar.

Faraz qilish o'yinlarida o'quvchilar geografik karta bo'yicha «hayoliy sayohat»da bo'lishadi va unda «ko'rgan» narsa va hodisalarini tasvirlab berishadilar.

Magnitli doska yordamida o'tkaziladigan o'yinlarida geografik loto, domino, chaynordlarni magnitli doska yordamida hamma uchun ko'rinadigan tarzda yechish mumkin. Bu o'quvchilar uchun juda qiziqarli o'yin hisoblanadi.

Test savollari yordamida o'tkaziladigan o'yinlarda asosan turli shakl va mazmunga ega bo'lgan testlardan foydalaniladi.

O'qituvchi dars jarayonida yoki sinfdan tashqari ishlarda o'yinlardan foydalanishda yuqorida keltirilgan o'yin turlarini to'g'ri tanlashga e'tibor berishi zarur. To'g'ri tanlangan o'yinlarning samarasi yuqori bo'ladi.

Geografiya darslarida qo'llaniladigan o'yinlarni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

- "Tabiiy geografik" o'yinlar;
- "Iqtisodiy-ijtimoiy geografik" o'yinlar.

5 tendensiya. Aralash o'qitish (Blended learning) yoki gibrid o'qitish. Aralash ta'lim – an'anaviy o'qitish usullari va zamonaviy texnologiyalarni o'zida mujassam etgan ta'lim shaklidir. Bu atama inglizcha "aralastirmoq" degan so'zidan kelib chiqqan. Ba'zan u gibrid deb ham ataladi.

Aralash ta'lim sinfda "jonli" ma'ruzalar, laboratoriya yoki muassasada amaliy mashg'ulotlar, onlayn seminarlar, vebinarlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari va oflayn va onlayn o'rganishning boshqa shakllarini o'z ichiga olishi mumkin. O'quv jarayonini tashkil etuvchi har bir o'qituvchi ma'lum bir vaziyatda ma'lumotni o'rganish uchun qaysi shakllar samarali ekanligini mustaqil ravishda hal qilish huquqiga ega.

Gibrid o'qitishda o'quv jarayoni an'anaviy va elektron formatlar o'rtasidagi o'tishdir.

Aralash ta'lim bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilishga imkon beradi:

- nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish;
- olingan bilimlarni amaliy jihatdan ishlab chiqish;
- kompyuter tasviri emas, balki "jonli" murabbiy bilan bog'lanish;
- o'quv rejasini ratsionalizatsiya qilish;
- materialni o'rganish vaqtini qisqartirish.

Umuman olganda o'qitish jarayonida yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llash avvalo o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishiga olib keladi va bunga mos ravishda o'quvchilarning o'zlashtirish sifati hamda ularning ijodiy qobiliyatlarining

oshishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ilmiy-texnika taraqqiyoti yangiliklarini o'qituvchi o'z vaqtida qabul qilishi, qayta ishlashi va undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi bugungi ta'limdagi eng asosiy zarurat hisoblanishini aytib o'tish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vaxobov X., Alimkulov N., Sultanova N. Geografiya o'qitish metodikasi. – T.: Nodirabegim, 2021. – 360 b.
2. Ishmuhamedov R , Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013 yil
3. Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M., Fedorko V. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. Darslik. – T.: O'zbekiston. 2019
4. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. Geografiya ta'limi uchun o'quv qo'llanma. – Urganch. 2001. – B. 212 143
5. Mo'minov O. Geografiya ta'limi metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 1986. – B. 208.
6. www.wikipedia.org